

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI



ORIENTAL UNIVERSITETI

BIZNES VA BOSHQARUV
kafedrası

SADIKOV TO‘LAGAN BATIROVICH
XALILOVA GULNOZA NURULLO QIZI

TURIZMDA SIFATNI BOSHQARISH
fanidan

Talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish, nazorat
qilish va baholash bo‘yicha

USLUBIY TAVSIYANOMA

Bilim sohasi:	1000000 – Xizmatlar
Ta’lim sohasi:	1010000 – Xizmat ko‘rsatish sohasi
Ta’lim yo‘nalishi:	61010400– Turizm (faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha)

Toshkent - 2026

“Turizmda sifatni boshqarish” fanidan “Talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish, nazorat qilish va baholash bo‘yicha uslubiy tavsiyanoma” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi 824-son qarori hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021-yil 16-iyuldagi “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 311-son buyrug‘i asosida ishlab chiqilgan **“Oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish va nazorat qilish bo‘yicha yo‘riqnoma”** hamda “Turizmda sifatni boshqarish” fanining sillabusiga muvofiq tayyorlangan.

Mazkur uslubiy tavsiyanomada talabalar mustaqil ishlarining asosiy shakllari va ularning mazmuni, mustaqil ishni amalga oshirishda talaba bajarishi lozim bo‘lgan vazifalar, mustaqil ishlarni qabul qilish tartibi, ularni bajarish bo‘yicha maslahatlarni tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi bayon etilgan.

Tuzuvchilar:

T. Sadikov – “Biznes va boshqaruv” kafedrasida dotsent v.b.

G. Xalilova - “Biznes va boshqaruv” kafedrasida o‘qituvchi-stajyori

Taqrizchilar:

1.B.Sanakulova – Oriental universiteti “Biznes va boshqaruv” kafedrasida DSc, professori

2.M.T.Aliyeva – TDIU “Turizm va mehmonxona biznesi” kafedrasida prof, i.f.d.

Oriental universiteti O‘quv-uslubiy kengashi tomonidan ma’qullangan va nashrga tavsiya etilgan (2026 yil “___” _____ - sonli bayonnoma).

T. Sadikov hamda G. Xalilovalar tomonidan “Turizmda sifatni boshqarish” fanidan “Talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish, nazorat qilish va baholash bo‘yicha uslubiy tavsiyanoma”. -T.: Oriental Universiteti, 2026, - 32 b.

Kirish

“Turizmda sifatni boshqarish” fanidan talabalarning mustaqil ta’limini samarali tashkil etish, nazorat qilish va baholash jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan. Unda mustaqil ta’limning mazmuni, shakllari hamda uni amalga oshirishda o’qituvchi va talabaning vazifalari yoritilgan. Tavsiyanoma talabalarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi hamda ta’lim jarayonida mustaqil ta’limning sifat va samaradorligini oshirishni maqsad qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish markazi mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan “Talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish: metodik qo‘llanma”da keltirilganidek hozirgi kunda o‘quv rejalarda talabalar o‘quv yuklamasining hajmi auditoriya (kontaktli) va mustaqil ta’limning nisbati bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarida 40/60 foiz nisbatidan 50/50 foiz nisbatigacha, nisbatigacha ajratilgan. Ta’lim dasturining o‘zgarishi jarayonida fanlarning bir qator masala va muammolari mustaqil ta’lim orqali o‘rganilishi lozim¹.

“Turizmda sifatni boshqarish” fanidan “Talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish, nazorat qilish va baholash bo‘yicha uslubiy tavsiyanoma” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-son qarori hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021-yil 16-iyuldagi “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 311-son buyrug‘i asosida ishlab chiqilgan “Oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish va nazorat qilish bo‘yicha yo‘riqnoma”, Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2022-yil 29-oktabrdagi 6-sonli yig‘ilish bayoni hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2022-yil 25-noyabrdagi 388-sonli buyrug‘i bilan nashrga tavsiya etilgan “Talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish: metodik qo‘llanma” hamda “Turizmda sifatni boshqarish” fanining sillabusiga muvofiq tayyorlangan.

“Turizmda sifatni boshqarish” fanidan kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish va nazorat qilishga qaratilgan bu uslubiy tavsiyanomada quyidagilar yoritilgan:

- talabalarning mustaqil fikrlashini shakllantirish usullari;
- mustaqil ishlashning mazmuni, shakllari va metodlari;

¹ L. Zaripov, N. Xayitov, Z. Tohirov. Talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish. Metodik qo‘llanma – T.: “Sano-Standart”, 2023. – 32 b.

- talabalarning mustaqil ishlashiga oid metodik tavsiyalar.

Mazkur tavsiyanoma quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- mustaqil ishlarining asosiy shakllari va mazmuni;
- talaba tomonidan bajariladigan vazifalar;
- ishlarni qabul qilish va baholash tartibi;
- maslahat berish, nazorat qilish tartiblari.

1. Talabalar mustaqil ishlarining mazmuni va tamoyillari

Mustaqil ta'lim - bu o‘quvchi yoki talabaning o‘qituvchi yoki ustoz to‘g‘ridan-to‘g‘ri yondashuviz, o‘z tashabbusi bilan bilim olish, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish jarayoni. Ushbu jarayonda:

- O‘quvchi o‘z bilim olish faoliyatini mustaqil rejalashtiradi
- O‘z tezligi va uslubi bilan o‘rganadi
- O‘z oldiga maqsadlar qo‘yib, ularga erishish yo‘llarini topadi

Ushbu uslubiy tavsiyanoma "Turizm" yo‘nalishi talabalari, o‘qituvchilar va mustaqil ta’limni tashkil etish bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar uchun mo‘ljallangan.

Talabaning mustaqil ta'lim yuklamasi o‘quv rejasi doirasida muayyan fanni yaxshi o‘zlashtirish uchun belgilab qo‘yilgan o‘quv jarayonining muhim tarkibiy qismidir. Mustaqil ta'lim jarayoni auditoriya darslaridan tashqarida, o‘qituvchi tomonidan nazorat va rahbarlik qilinadigan sharoitda amalga oshiriladi. Bu jarayon talabaning o‘zi mustaqil ravishda mavzularni o‘rganishi, topshiriqlarni bajarishi yoki loyihalar ishlab chiqishini o‘z ichiga oladi. Bunda auditoriya soatlari hisobga olinmaydi, chunki mustaqil ta'lim asosan darsdan tashqari vaqtga mo‘ljallangan bo‘ladi.

“Turizmda sifatni boshqarish” fani doirasida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish, ularning turizm sohasiga oid bilimlarini boyitish, keng dunyoqarash shakllantirish, ijtimoiy faolligini oshirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

“Turizmda sifatni boshqarish” fanini o'qitish jarayonini takomillashtirish, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil qilish orqali amalga oshiriladi. Bu yo'nalishda talabalarning fanga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish, ularning bilim olish faolligini oshirish va rivojlantirish asosiy e'tiborga olinadi. Mustaqil ishlar jarayonida talabalarda ijodiy fikrlash qobiliyati, mustaqil o'qish-o'rganish ko'nikmalari va amaliy layoqatlar shakllanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021-yil 16-iyuldagi “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 311-son buyrug‘i asosida ishlab chiqilgan “Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul

tizimida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha yo'riqnoma"da belgilab berilganidek, "**mustaqil ish** - o'qituvchining topshirig'i va rahbarligida o'quv vazifasini hal etadigan ta'limning faol metodi. Mustaqil ish qo'yilgan maqsad bilan bog'liqlikda talabalarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. Talabaning mustaqil ishlari uning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka hamda barcha vazifalarni o'z vaqtida va mukammal tarzda bajarishga asoslangan faoliyatidir"².

Mustaqil ishlar qamrovi

1. Nazariy bilimlarni chuqurlashtirish

- Adabiyotlar bilan ishlash:

- Ilmiy maqolalar, monografiyalar, darsliklarni o'rganish
- Xorijiy manbalarni tahlil qilish
- Adabiy sharhlar tayyorlash

- Ma'lumotlarni tahlil qilish:

- Turli manbalardagi ma'lumotlarni solishtirish
- Nazariy materiallarni tizimlashtirish
- Xulosalar chiqarish

2. Amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish

- Menejment tadqiqotlari:

- Muammo va vaziyatlarni aniqlash (case study tahlili)
- Ma'lumot to'plash usullari (so'rovnoma, intervyu, kuzatuv)
- Statistik va analitik tahlil qilish
- Qaror qabul qilish modellarini qo'llash

- Menejment rejalarini ishlab chiqish:

- Strategik rejalashtirish va baholash
- Risklarni tahlil qilish va boshqarish
- Jamoa bilan ishlash va liderlik ko'nikmalari

3. Loyiha faoliyati

- Real loyihalarni amalga oshirish:

- Mahalliy bizneslar uch marketing strategiyalari
- Ijtimoiy loyihalar uch marketing yechimlari
- Startup loyihalarni marketing qo'llab-quvvatlash

- Kreativ yechimlar ishlab chiqish:

- Brending loyihalari
- Kontent-strategiyalar
- Digital marketing kampaniyalari

² O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021 yil 16 iyuldagi "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 311-son buyrug'i asosida ishlab chiqilgan "Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha yo'riqnoma", 1.3-bandi.

4. Ilmiy-tadqiqot faoliyati

- Tadqiqotlar olib borish:
 - So‘rovnoma va intervyular o‘tkazish
 - Ma'lumotlarni to‘plash va tahlil qilish
 - Statistik hisob-kitoblar
- Ilmiy ishlar yaratish:
 - Maqolalar yozish
 - Ilmiy hisobotlar tayyorlash
 - Konferensiyalar uch materiallar

Mustaqil ishning asosiy tamoyillari

1. Mustaqillik va yakka tartibdagi ishlash tamoyili

• Talabalarining o‘z bilim, ko‘nikma va malakalarini mustaqil ravishda namoyon etishi

- Shaxsiy mas'uliyatni rivojlantirish
- Qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirish

2. Tizimlilik va davomiylik tamoyili

- Mustaqil ishlarning muntazam ravishda olib borilishi
- O‘quv jarayoni bilan uzviy bog‘liqlik
- Bosqichma-bosqich murakkablashuv

3. Individualizatsiya va differentsatsiya tamoyili

- Har bir talabaning qobiliyatlariga moslashtirilgan topshiriqlar
- Shaxsiy qiziqishlar va ehtiyojlarni hisobga olish
- Turli darajadagi murakkablikdagi vazifalar

4. Amaliy yo‘naltirilganlik tamoyili

- Nazariy bilimlarning amaliyotga tatbiq etilishi
- Haqiqiy marketing muammolarini hal qilish
- Kasbiy faoliyatga tayyorlash

5. Innovatsionlik va yarativlik tamoyili

- Yangi g‘oyalarni ishlab chiqish
- Noan’anaviy yechimlarni topish
- Ijodiy yondashuvni rag‘batlantirish

Mustaqil ta’limning asosiy maqsadlari:

• Talabalarining fan materialini mustaqil o‘rganish, tahlil qilish va umumlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish.

• Talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish qobiliyatini rivojlantirish.

• Mustaqil fikrlash, yangi g‘oyalarni topish va ularni amalga oshirish layoqatini oshirish.

- Kasbiy faoliyatda duch keladigan muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatini shakllantirish.

Talabalarning mustaqil ta'lim jarayonini samarali tashkil etish orqali quyidagi pedagogik vazifalarni yechishga erishiladi:

1. *Fan materialini chuqur va mustahkam o'zlashtirish.* Mustaqil ish darslarda o'rganilgan nazariy bilimlarni mustahkamlash, takrorlash va yanada chuqurlashtirish imkoniyatini beradi.

2. *Mustaqil bilim olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish.* Talabalarda adabiyotlar bilan ishlash, ma'lumotlarni qidirish, tahlil qilish, saralash va umumlashtirish, ilmiy-tadqiqot usullarini qo'llash qobiliyatini rivojlantirish.

3. *Masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish qobiliyatini oshirish.* Turli onlayn platformalar, elektron kutubxonalar, ma'lumotlar bazasi va dasturiy ta'minotlardan samarali foydalanishni o'rgatish.

4. *Ijodiy qobiliyat, tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.* Talabalarni muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qilishga, yangi g'oyalar va yechimlarni topishga, o'z fikrlarini asoslashga o'rgatish.

5. *Shaxsiy va kasbiy sifatlarni shakllantirish.* Intizom, tartibliлик, vaqtni to'g'ri taqsimlash, mas'uliyat hissi, ishonch va qat'iylik kabi fazilatlarni rivojlantirish.

6. *Ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlash.* Mustaqil ishlar orqali talabalarda ilmiy izlanishlar olib borish, natijalarni umumlashtirish va ilmiy talqin qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

7. *Kelajakdagi kasbiy faoliyatga amaliy tayyorgarlikni ta'minlash.* Haqiqiy hayotiy va kasbiy muammolarga yechim topish, amaliy vaziyatlarni modellashtirish orqali malaka oshirish.

Mustaqil ta'limni tashkil etish nafaqat ma'lum bir fan bo'yicha bilim berishga, balki talabani hayot va kasb faoliyatida muvaffaqiyatli bo'lishi uchun zarur bo'lgan barcha ko'nikma va kompetensiyalar bilan qurollantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Tavsiyanomada talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning barcha bosqichlari yoritilgan: ishlarning shakllari va mazmuni, bajariladigan vazifalar, ularni topshirish va qabul qilish tartibi, shuningdek maslahat olish, nazorat qilinish va yakuniy baholanish jarayonlari.

2. Mustaqil ta'limni amalga oshirishga doir professor-o'qituvchi hamda talabalarning vazifa va majburiyatlari

Professor-o'qituvchilar talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishda quyidagi vazifalarni bajaradi³:

1. Tashkil etish va rejalashtirish bosqichi:

1) fan dasturi (sillabus)ga muvofiq mustaqil ta'lim mavzulari va topshiriqlarini belgilaydi;

2) kurs ishi, oraliq va yakuniy nazorat materiallarida mustaqil o'rganilgan mavzularni aks ettiradi;

3) mustaqil ishlarni baholashning aniq mezonlarini va muddatlarini ko'rsatadi.

2. Ta'minlash va yo'naltirish bosqichi:

1) talabalar uchun metodik ko'rsatmalar, qo'shimcha materiallar va mustaqil ish mavzularini tayyorlaydi;

2) kichik guruhlarda hamkorlikdagi ishlarni tashkil etadi va baholaydi;

3) kontakt soatlarida mustaqil ta'lim bo'yicha maslahatlar beradi.

3. Nazorat va baholash bosqichi:

1) talabalarning elektron tizim orqali topshirilgan ishlarini tekshiradi, baholaydi va natijalarni ularga o'z vaqtida bildiradi;

2) "Hozir va shu yerda" tamoyili asosida kichik guruh ishlari taqdimotlarini o'tkazib, yutuq va kamchiliklarni tahlil qiladi.

Talabalar bajarishi lozim bo'lgan vazifalar:

1. *Vaqtida bajarish:* fan dasturida belgilangan mustaqil o'rganish mavzularini o'zlashtirish va topshiriqlarni belgilangan muddatda taqdim etish.

2. *Halollik:* barcha topshiriqlarni plagiat (ko'chirmakashlik) qilmasdan, shaxsiy mehnat asosida bajarish.

3. *Sifat va rivojlanish:* topshiriqlarga ijodiy va tanqidiy yondashish, innovatsion fikrlash va doimiy o'z-o'zini takomillashtirish intilishiga ega bo'lish.

4. *Jamoa ishi:* kichik guruhlarda ishlaganda jamoadoshga aylanish, o'z vazifasini o'z vaqtida bajarish va jamoada ishlash kompetensiyasini egallash.

Agar talaba mustaqil ish uchun berilgan bahoga e'tiroz bildirsa, unda baholash muddati tugagandan keyingi 24 soat mobaynida dekanat (registrator ofis)ga elektron platforma orqali rasmiy ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega.

³ O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021 yil 16 iyuldagi "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 311-son buyrug'i asosida ishlab chiqilgan "Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha yo'riqnoma", 4.1 va 4.2-bandlar.

3. Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish shakllari va turlari

Mustaqil ishlarning qanday shaklda bo'lishi, o'quv yo'nalishi hamda o'tilayotgan fanni o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. "Turizm sifati boshqarish" fani xususiyatidan kelib chiqib fan doirasida quyidagi mustaqil ta'lim turlari shaklida tashkil etilishi mumkin:

Auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish:

- ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik;
- marketing keys-tadqiqotlariga tayyorgarlik;
- kollokviumlarga tayyorgarlik;
- nazorat ishlariga tayyorgarlik;
- sinov va imtihonga tayyorgarlik.

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar:

Nazariy mustaqil ishlar. Darslik va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash Turizm sifati nazorati, standartiga oid tushuncha va kategoriyalarni konspekt qilish. Mavzu bo'yicha tayanch atamalar lug'atini tuzish

Amaliy mustaqil ishlar. Amaliy vaziyatlar (case study) tahlili Turistik tashkilotlar boshqaruvi bo'yicha muammoli vaziyatlarga yechim ishlab chiqish. Tashkilot boshqaruvida standartlarga oid misollar keltirish.

Referat va taqdimotlar. ISO xalqaro standartlashtirish tashkiloti, O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimiga oid ma'lumotlar to'plash, taqdimotlar tayyorlash.

Ijodiy mustaqil ishlar. Ma'lum bir standartlarga asoslangan holda mehmonxona tuzilmasini ishlab chiqish. Menejerning shaxsiy fazilatlarini bo'yicha esse yozish. Startap yoki biznes g'oya uchun boshqaruv modeli yaratish

Axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida. Internet manbalaridan foydalanib tahliliy ma'lumot tayyorlash. Turizm sifati boshqarish faniga oid video, maqola yoki intervyular tahlili. Onlayn test va topshiriqlarni bajarish

Keys-stadi tayyorlash - real yoki taxminiy marketing muammosini tavsiflovchi keys-stadi yaratish va uni yechish yo'llarini taklif etish.

Turizm sifati nazorati mavzusida esse yozish - dolzarb mavzu bo'yicha tanqidiy tahlil va shaxsiy fikrni bildiruvchi esse tayyorlash.

Konspekt yozish – Turizm sifati nazorati, standartlarga oid adabiyotlar, maqolalar va tadqiqotlar asosida konspekt tayyorlash.

Glossariy tuzish – Turizm sifati boshqarish terminlari va tushunchalarining izohli lug'atini yaratish.

Taqdimot tayyorlash – Turizm sifati boshqarish fani mavzulari bo'yicha professional taqdimotlar yaratish.

Mustaqil ishlarni tashkil etish bosqichlari

1. Tayyorgarlik bosqichi:

- topshiriqni aniqlash va shakllantirish;
- manbalarni tanlash;
- reja va ish grafigini tuzish.

2. Amalga oshirish bosqichi:

- ma'lumotlarni to'plash va tizimlashtirish;
- tahlil va sintez;
- yakuniy natija (xulosa).

3. Nazorat va baholash bosqichi:

- natijalarni taqdim etish;
- himoya qilish;
- baholash va teskari aloqa.

Mustaqil ishlarni baholash mezonlari

1. Bilim darajasi:

- mavzuni chuqur o'zlashtirish;
- nazariy asoslanganlik;
- manbalardan foydalanish ko'nikmasi.

2. Amaliy ahamiyati:

- yechimlarning amaliy ahamiyati;
- real hayotga qo'llanilishi;
- iqtisodiy samaradorlik.

3. Innovatsionlik:

- yangilik darajasi;
- ijodiy yondashuv;
- noan'anaviy yechimlar.

4. Texnik jihatdan tuzilishi:

- ishning tuzilishi;
- rasmiylashtirish talablariga rioya qilinganligi;
- til va uslubning aniqligi;

5. Muddatlarga amal qilinishi:

- vaqtida topshirish;
- ish rejasiga rioya qilish;
- bosqichma-bosqich natijalarning taqdim etilishi.

Mustaqil ishlarni yaxshi tashkil etish shartlari

1. Metodik ta'minot:

- aniq ko'rsatmalar va talablar;
- namunalar;

- maslahat va ko'rsatmalar.

2. Resurslar ta'minoti:

- kutubxona resurslari;

- elektron ma'lumotlar bazalari;

- dasturiy ta'minot va vositalar.

3. Konsultatsiya qo'llab-quvvatishi:

- muntazam maslahatlar;

- individual yondashuv;

- muammolarni hal qilishda yordam.

4. Motivatsion mexanizmlar:

- rag'batlantirish tizimi;

- natijalarning tan olinishi;

- yutuqlarning namoyish etilishi.

Mustaqil ishlarning mazmuni va tamoyillari talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, ularning shaxsiy salohiyatini rivojlantirish va zamonaviy marketing mutaxassisi sifatida tayyorlashga qaratilgan bo'lishi lozim.

Mustaqil ta'lim topshiriqlarining shakli, hajmi va murakkablik darajasi talabalarning har bir keyingi semestrda o'tishiga mutanosib ravishda o'zgartirib borilishi, talabalar mustaqilligini ta'minlashi hamda ularni tizimli va ijodiy yondashuvga yo'naltirishi lozim.

Mustaqil ta'lim o'quv jarayonining uzviy qismi bo'lib, u talabalar tomonidan fanning nazariy asoslarini yaxshi egallanishini va iqtisodiy tafakkurning shakllanishini ta'minlaydi. Mazkur vazifalarni samarali bajarish bevosita ta'lim berish metodikasi hamda shaxs rivojlanishi qonuniyatlariga tayanishni talab etadi.

Professor-o'qituvchi o'z fanining o'ziga xosligini inobatga olgan holda mustaqil ish turlarini tanlashi lozim. Shuningdek, talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibini uslubiy tavsiyanomada aniq ko'rsatib berishi zarur.

Mustaqil ta'lim doirasida amalga oshiriladigan ish turlarining tavsifi quyida keltirilgan:

1. Mavzularni mustaqil o'zlashtirish — bu talabaning o'quv materialini o'qituvchi ishtirokisiz, shaxsiy reja va intizom asosida o'rganish jarayonidir. Kunimizdagi ta'lim standartlariga ko'ra, bu jarayon faqat kitob o'qish emas, balki raqamli texnologiyalardan unumli foydalanishni ham ko'zda tutadi.

Fanning o'ziga xosligi va talabalarning salohiyatidan kelib chiqib, ayrim mavzular mustaqil o'rganish uchun beriladi. Bunday topshiriqlarda mavzu mohiyatini ochib beruvchi asosiy tushunchalar, tizimli savollar hamda zaruriy adabiyotlar va manbalar ro'yxati aniq ko'rsatilishi shart.

Mustaqil ta'lim jarayonida talaba adabiyotlar bilan ishlab, mavzu yuzasidan nazariy ma'lumotlarni tizimlashtiradi va savollarga javob tayyorlaydi. O'zlashtirishda muammolar yuzaga kelgan taqdirda, fan o'qituvchisi bilan konsultativ uchrashuvlar tashkil etiladi. Mazkur topshiriqning natijasi professor huzurida og'zaki himoya qilinishi lozim.

2. Referat tayyorlash. Tahliliy materiallar asosida yozilgan referat seminar ma'ruzasiga nisbatan yuqori ilmiy qiymatga ega bo'lib, talabaning mavzuni chuqur tushunishini ta'minlaydi. Ayniqsa, "Turizm sifati boshqarish" fanida talabaning o'z pozitsiyasini dalillar bilan himoya qila olish qobiliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Referat — bu muayyan mavzu bo'yicha mavjud adabiyotlar, ilmiy manbalar va ma'lumotlarni o'rganish asosida tayyorlangan yozma hisobot yoki qisqacha bayondir. 2025-yilgi ta'lim talablariga muvofiq, referat shunchaki ko'chirish emas, balki manbalarni tahlil qilish mahsulidir.

Referatning asosiy maqsadi talabada mustaqil ishlash, ma'lumotlarni saralash va ularni tizimli ravishda bayon etish ko'nikmalarini shakllantirishdir. U quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Mavzuga oid turli qarashlarni o'rganish va solishtirish.
- Muammoning mohiyatini yoritish.
- Mavzu yuzasidan shaxsiy xulosa chiqarish.

Referat yozishning bosqichma-bosqich tartibi

1. Mavzuni tanlash va reja tuzish. Mavzu fanning ishchi dasturiga mos bo'lishi kerak. Reja odatda 3-4 ta asosiy qismdan (kirish, asosiy qismlar, xulosa) iborat bo'ladi.

2. Manbalarni yig'ish va o'rganish. Mavzuga oid kamida 5-10 ta manbani (darsliklar, ilmiy maqolalar, elektron resurslar) ko'rib chiqish tavsiya etiladi. Manbalarning yangiligi (oxirgi 5-10 yil) muhim ahamiyatga ega.

3. Referatning tarkibiy qismlari. Referat odatda quyidagi tuzilishga ega bo'ladi:

- Titul varag'i: OTM nomi, kafedra, fan, mavzu, ijrochi va tekshiruvchi ma'lumotlari.
- Mundarija: referat bo'limlari va sahifalari.
- Kirish (1-2 bet): mavzuning dolzarbligi, maqsadi va vazifalari bayon qilinadi.
- Asosiy qism (10-15 bet): mavzu bir necha reja asosida yoritiladi. Bunda turli mualliflarning fikrlari keltirilib, tahlil qilinadi.
- Xulosa (1-2 bet): o'rganilgan materiallar asosida umumiy xulosalar va takliflar shakllantiriladi.

• Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati: Manbalar alifbo tartibida yoki matnda kelish tartibida joylashtiriladi (1-ilova).

4. *Rasmiylashtirish talablari (standart)*

- Shrift: Times New Roman, 14 kegl.
- Interval: 1,5 (qatorlar oralig'i).
- Hoshiyalar: chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm.
- Hajmi: 15-25 bet oralig'ida.

3. *Esse yozish*. Esse — bu muayyan mavzu yoki muammo bo'yicha shaxsiy fikr, mulohaza va qarashlarni erkin uslubda bayon etuvchi ijodiy yozma ishdir. Referatdan farqli o'laroq, esseda ma'lumotlarni shunchaki jamlash emas, balki muallifning *subyektiv nuqtayi nazari* va asoslangan mantiqiy fikrlari birinchi o'ringa chiqadi. Esse yozish qoidalari haqida batafsil.

Esseninng asosiy maqsadi — talabaning mustaqil va tanqidiy fikrlash, o'z g'oyalarini dalillar bilan isbotlash hamda fikrini jozibali va tushunarli tilda bayon qilish qobiliyatini rivojlantirishdir. Marketing kabi fanlarda esse bozordagi vaziyatlarni tahlil qilish va prognoz qilish ko'nikmasini shakllantiradi.

Esse yozishning tartibi (tuzilishi)

Esse qat'iy ilmiy qoliplarga ega bo'lmasa-da, odatda quyidagi uch qismdan iborat bo'ladi:

1. Kirish

- Mavzuning bayoni: o'quvchini mavzu bilan tanishtirish.
- Tezis (asosiy g'oya): yoritiladigan asosiy fikr. Bir yoki ikki jumladan iborat bo'ladi.

- Dolzarblik: Nima uchun bu mavzu muhimligini qisqacha ko'rsatish.

2. Asosiy qism

Bu qism bir necha paragrafdan iborat bo'lib, har bir paragraf quyidagi tuzilishga ega bo'lishi kerak:

- Tezisni quvvatlovchi argument: shaxsiy fikr.
- Dalil va misollar: statistik ma'lumotlar, hayotiy misollar yoki olimlarning fikrlari.

- Xulosa: ushbu paragrafning umumiy g'oyaga bog'liqligi.

3. Xulosa

- Kirish qismidagi tezisni qayta ta'kidlash (lekin boshqa so'zlar bilan).
- Asosiy qismdagi dalillarni umumlashtirish.
- Yakuniy xulosa yoki o'quvchini o'ylantiradigan yakuniy fikr.

Esseni rasmiylashtirish va yozish qoidalari

1. Hajmi: Odatda esse kichik hajmli bo'ladi (2 tadan 5 betgacha), lekin bu OTM talabiga qarab o'zgarishi mumkin.

2. *Uslub*: matn mantiqiy, tushunarli va ravon bo'lishi lozim. "Menimcha", "Mening fikrimcha", "Xulosa qilib aytganda" kabi iboralardan foydalaniladi.

3. *Tahlil chuqurligi*: shunchaki faktlar sanalmaydi, ularning sabab va oqibatlarini tushuntiriladi.

4. *Akademik halollik*: boshqalarning fikridan foydalanganda ularga havola berilishi lozim. Antiplagiat.uz tizimi orqali tekshirilganda, essening o'ziga xosligi yuqori bo'lishi shart.

5. *Savodxonlik*: imlo va punktuatsiya xatolariga yo'l qo'ymaslik uchun tayyor matni Lotin.uz kabi korrektor dasturlar orqali tekshirish o'rinli bo'ladi.

4. Keys-stadilar (muammoli vaziyatlar tahlili) tayyorlash. Keys-stadilar - bu talabalarni (yoki ishtirokchilarni) real hayotiy yoki kasbiy muammoli vaziyatlar bilan tanishtirish va ularni tahlil qilish orqali mustaqil ravishda qaror qabul qilish, muammolarni hal etish va nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiiq etishga o'rgatuvchi interfaol ta'lim texnologiyasi yoki tadqiqot strategiyasidir.

Keys-stadi metodi ta'lim jarayonida hayotiy vaziyatlardan foydalanishga qaratilgan bo'lib, har bir muammo yoki mavzu yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar rejasi, ularni bajarish tafsiloti, natijalar va xulosalar yig'indisini o'z ichiga oladi. Bu, shuningdek, bir yoki bir nechta keyslarni (vaziyatlarni), ko'p miqdordagi dalillarni qamrab oluvchi tadqiqot strategiyasi ham bo'lishi mumkin.

Metodning mohiyati tayyor bilimlarni olishga emas, balki ularni rivojlantirishga, o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi ijodiga, muammoli vaziyatni har tomonlama o'rganish va tahlil qilishga qaratilgan. U o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga, tezkor savol-javoblarga, guruhlarda ishlashga va taqdimotlar qilishga undaydi.

Keys-stadining mazmuni odatda ikki asosiy qismdan iborat bo'ladi: *muammoli vaziyat* va *uni yechish yo'llari*.

• *Muammoli vaziyat (keysning dastlabki holati)* - bu real hayotdan olingan aniq bir misol, voqea, kompaniya faoliyatidagi holat yoki boshqa har qanday amaliy muammo bo'lishi mumkin. U tegishli umumiy axborotlar, hujjatlar, kompaniyalar hisobotlari, shaxsiy tajribalar va boshqa dalillarni o'z ichiga oladi. Ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligi muhim ahamiyatga ega.

• *Tahlil va yechim*: talabalar ushbu vaziyatni mustaqil yoki guruh bo'lib tahlil qiladilar, mavjud axborotlarni topadilar, muammoni aniqlaydilar va uning yechimini izlaydilar. Bu jarayon yakunida ular o'z xulosalarini, qarorlarini yoki tavsiyalarini taqdim etadilar.

